

ZAMONAVIY O'ZBEKISTONDA DAVLAT VA DIN MUNOSABATLARI

Ilmiy rahbar: Dilshod Yuldashevich Sattorov
Bojxona instituti "Umum-huquqiy fanlar kafedrası"
o'qituvchisi, dotsent

Sa'dullayev Behro'z Bahodir o'g'li
O'zbekiston Respublikasi
Bojxona qo'mitasining Bojxona instituti,
Bojxona ishi yo'nalishi 1-kurs, 525-guruh kursanti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada davlat va din o'rtasidagi munosabatlarning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari, vijdon erkinligining mazmuni hamda diniy tashkilotlarning huquqiy maqomi tahlil qilinadi. Unda dunyoviy davlat sharoitida diniy erkinlikni ta'minlash, diniy tashkilotlarning davlatdan ajratilganligi, konfessiyalar tengligi va diniy kamsitishning oldini olish masalalari yoritiladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va amaldagi qonunchilikda belgilangan vijdon erkinligining kafolatlari, diniy ekstremizm va mutaassiblikka qarshi huquqiy mexanizmlar, diniy tashkilotlarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi ishtiroki chegaralari ko'rib chiqiladi. Maqola davlatning diniy masalalarda betarafligi tamoyilini mustahkamlash orqali jamiyatda tinchlik, bag'rikenglik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash masalalariga qaratilgan.*

Kalit so'zlar. *Davlat va din munosabatlari, vijdon erkinligi, dunyoviy davlat, diniy tashkilotlar, konstitutsiyaviy huquq, diniy bag'rikenglik, konfessiyalar tengligi, diniy ekstremizm*

Annotation. *This article examines the constitutional and legal foundations of state–religion relations, freedom of conscience, and the legal status of religious organizations. It analyzes the principles of ensuring religious freedom within a secular state, the separation of religion from the state, equality of religious denominations, and the prevention of religious discrimination. Particular attention is paid to the guarantees of freedom of conscience enshrined in the Constitution and legislation of the Republic of Uzbekistan, as well as legal mechanisms aimed at countering religious extremism and fanaticism. The article also explores the limits of participation of religious organizations in social and political life. Overall, the study emphasizes the importance of state neutrality in religious matters as a means of ensuring peace, tolerance, and social stability in society.*

Keywords. *State–religion relations, freedom of conscience, secular state, religious organizations, constitutional law, religious tolerance, equality of religions, religious extremism*

Davlat va din munosabatlarining ildizlari juda qadim davrlarga borib taqaladi. Ayni paytda ushbu munosabat turli tarixiy davrlarda har xil mazmun kasb etgan. O'rta asrlarda din jamiyatning barcha sohalarida, shu jumladan, davlat hayotida to'la hukmronlik qilgan

davrlar ham bo'lgan. Ayrim davlatlarda din butunlay inkor etilgan, ya'ni ateizm ustunlik qilgan. XXI asr boshlarida davlat va dinning o'zaro munosabatlari bo'yicha davlatlarni quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

- dinga davlat dini maqomi berilgan davlatlar;
- cherkov ta'siri doirasidagi davlatlar,
- dunyoviy yoki diniy munosabatlarda betaraflik yo'lini tutuvchi davlatlar;
- rasmiy dinga ega bo'lmagan davlatlar;
- din davlatdan ajratilgan davlatlar;
- katolik cherkovi bilan kelishuvga ega davlatlar;
- huquqiy e'tirof etilgan diniy guruhlarini muhofaza qiluvchi davlatlar, diniyjamoaviy tizimli davlatlar.

Hozirgi davrda jahondagi bir qator davlatlar dinning davlatdan ajratilganini yoki davlatning diniy tashkilotga nisbatan betarafligini Konstitutsiya yoki qonun darajasida belgilab qo'ygan. Yuridik tan olingani yoki olinmaganidan qat'i nazar, barcha davlatlar din va e'tiqod erkinligiga humat bilan qarashlarini e'lon qilganlar. Hozirgi davrda davlat va din o'rtasidagi munosabatlar bir qator xususiyatlari bilan ajralib turishini ta'kidlash zarur. «Sovuq urush» davri tugaganidan keyin dinga qarshi hujumkorlik hamda diniy faoliyat ustidan nazorat qilish siyosati yengillashdi. Bu, bir tomondan, diniy erkinlikning ta'minlanishiga xizmat qilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, diniy sektalarning ko'payishi, yangilarining paydo bo'lishiga olib keladi.

O'zbekistonda o'z mohiyati, mazmuni va huquqiy asoslariga ko'ra din davlatdan ajratilgan hamda vijdon erkinligi, konfessional bag'rikenglik tamoyili mustahkamlangan. Mamlakatimiz Konstitutsiyasida diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilganligi hamda qonun oldida tengligi qayd etiladi. Shu bilan birga davlat diniy birlashmalarining faoliyatiga aralashmasligi belgilab berilgan. Bu esa mamlakatimizda davlatning diniy ishlarga, dinning esa davlat ishlariga (qonun hujjatlarida ko'rsatilgan holatlar bundan mustasno) aralashmasligini anglatadi. Shu bilan birga Asosiy Qonunimizda davlat o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlarini an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi, deb ta'kidlanadi.

O'zbekiston Respublikasi demokratik prinsiplarga sodiqligining ifodasi sifatida davlatning din va diniy tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlarida quyidagi prinsiplarga amal qilishini e'lon qildi:

- dindorlarning diniy tuyg'ularini humat qilish;
- diniy e'tiqodlarni fuqarolarning yoki ular uyush diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni ta'qib qilishga yo'l qo'ymaslik;
- ma'naviy tiklanish, umuminsoniy axloqiy qad-riyatlarini qaror toptirish ishida turli diniy uyushmalarining imkoniyatlaridan foydalanish uchun ular bilan muloqot qilish yo'llarini izlash;



- dindan buzg'unchilik maqsadlarida foydalanishga yo'l qo'yib bo'lmamasligini e'tirof etish.

Respublikamiz hududida davlat va din munosabatlarini tartibga solish, diniy tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita shug'ullanadi. Qo'mita o'z faoliyatini 1992-yilda boshlagan. O'tgan davr mobaynida yangi sharoitlarning yuzaga kelishi, davlatimiz taraqqiyotning yangi bosqichiga o'tishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-apreldagi farmoniga binoan qo'mita faoliyati isloh qilindi. Jumladan, xodimlar soni ko'payib, ularning oylik maoshlari oshirildi. Shu bilan birga qo'mita huzurida din sohasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni o'rganish bo'yicha markaz tashkil qilindi.

Davlat va din, fuqarolik hamda diniy hokimiyatlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish tarixan konstitutsiyaning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib kelgan. Bu vazifa, ayniqsa, jamiyatda diniy xilma-xillik va e'tiqodlar o'rtasida tafovutlar mavjud bo'lgan sharoitda, barcha fuqarolar uchun tinchlik, adolat va barqarorlikni ta'minlash bilan chambarchas bog'liqdir. Shunga qaramay, davlat va din o'rtasidagi munosabatlar masalasi hanuzgacha konstitutsiya yaratuvchilar oldida murakkab va dolzarb muammo bo'lib qolmoqda, chunki ayrim hollarda muayyan din milliy o'ziga xoslik yoki jamiyatning asosiy qadriyatlarini bilan uzviy bog'langan bo'lishi mumkin.

Bunday sharoitlarda jamoatchilik fikri diniy qadriyatlar bilan bog'liq siyosiy kuchlar orqali ifodalinishi, natijada ayrim dinlarga maxsus konstitutsiyaviy maqom berish talablari yuzaga kelishi mumkin. Shu bilan birga, diniy ozchiliklar o'z e'tiqodlariga muvofiq shaxsiy masalalarni tartibga solish huquqini talab qiladilar, bu esa ayrim hollarda assimetrik huquqiy tizim shakllanishiga olib keladi. Mazkur holatlar dini konstitutsiyalashtirish masalasida turli qarashlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Ayrimlar dini shaxsiy vijdon masalasi sifatida ko'rishni va davlatning diniy masalalarda betarafligini saqlash orqali diniy erkinlikni ta'minlashni eng maqbul yo'l deb hisoblaydilar.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasida din davlatdan ajratilgan bo'lib, barcha dinlar va diniy e'tiqodlar qonun oldida tengdir. Davlat biron-bir dinga nisbatan imtiyoz yoki cheklovlar belgilamaydi hamda diniy tashkilotlarning qonuniy faoliyatiga aralashmaydi. Diniy tashkilotlar ham o'z navbatida davlat vazifalarini bajarmaydi va amaldagi qonunlarga rioya etishi shart. Davlat diniy tashkilotlar yoki dahriylikni targ'ib qilish faoliyatini moliyalashtirmaydi, biroq ilmiy tadqiqotlar va ta'lim jarayonlarida din yoki dahriylikka nisbatan kamsitishning oldini oladi.

Diniy tashkilotlar ijtimoiy hayotda ishtirok etish huquqiga ega bo'lsa-da, ularning siyosiy jarayonga aralashuvi qat'iy cheklangan. Xususan, diniy ruhdagi siyosiy partiyalar tuzish, diniy tashkilotlarning siyosiy partiyalar faoliyatida ishtirok etishi yoki ularga moliyaviy ko'mak ko'rsatishi taqiqlanadi. Bu cheklovlar davlatning dunyoviylik tamoyilini saqlash va siyosiy jarayonlarda diniy omilning ustunlik qilinishining oldini olishga qaratilgandir.

Davlat turli diniy e'tiqoddagi va e'tiqodsiz fuqarolar o'rtasida o'zaro hurmat va bag'rikenglik muhitini shakllantirishga ko'maklashadi. Diniy mutaassiblik, ekstremizm, nafrat va adovat qo'zg'atuvchi har qanday faoliyat qonun bilan taqiqlanadi. Dindan davlat va Konstitutsiyaga qarshi targ'ibot olib borish, jamiyat barqarorligiga putur yetkazuvchi harakatlarni amalga oshirishga yo'l qo'yilmaydi. Ushbu talablarga rioya qilmagan shaxslar va tashkilotlar qonuniy javobgarlikka tortiladi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasida davlat va din munosabatlari dunyoviylik, vijdon erkinligi, konfessiyalar tengligi va diniy bag'rikenglik tamoyillariga asoslanadi. Mazkur konstitutsiyaviy-huquqiy mexanizmlar jamiyatda tinchlik, ijtimoiy muvozanat va barqaror rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Religion–State Relations. International IDEA Constitution-Building Primer 8 (Dawood Ahmed)
- 2.O'zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniyy tashkilotlar to'g'risida”gi qonuning 3-moddasi
- 3.O'zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniyy tashkilotlar to'g'risida”gi qonuning 5-moddasi
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 75-moddasi
5. O'zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniyy tashkilotlar to'g'risida”gi qonuning 7-moddasi
- 6.“Fuqarolarning vijdon erkinligini ta'minlash to'g'risida”gi qonun va unga ilova qilingan “Davlat siyosati konsepsiyasi”

